



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “30” aprel

BUYRUQ № 76

Toshkent sh.

**Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo‘yicha
uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo‘yicha uslubiyatni takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2018- yil 4- maydagi “Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 13- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov